



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘ngi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2023-yil 1-iyul holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) **20 262** tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar **17 060** ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining kamayishi **82,4** foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar **80,3** foiz) tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar

fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-iyul holatiga ko‘ra, birlikda.

Faoliyat ko‘rsatayotgan


Ro‘yxatdan o‘tgan




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2023- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2023- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda **554** taga kamayganligini ko'rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar **189** taga, oilaviy korxonalar **247** taga kamaygan.


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	434	8,3 %	Paxtakor t.	95	9,4 %
G'allaorol t.	287	15,2 %	Zafarobod t.	92	13,9 %
Zomin t.	251	14,0 %	Arnasoy t.	90	11,6 %
Forish t.	217	13,7 %	Mirzacho'l t.	86	10,9 %
Sharof Rashidov t.	208	8,0 %	Yangiobod t.	65	12,8 %
Zarbdor t.	144	12,7 %	Do'stlik t.	53	6,0 %
Baxmal t.	136	9,4 %			

2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



2023-yil 1-iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **20 262** tani tashkil etib. 2022-yilning mos davriga (**24 578** ta) nisbatan **4 316** taga quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli kamayganligi bilan ifodalash mumkin: savdo – **6 348** tadan **5 687** taga (kamayish **661** ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **4 354** tadan **3 449** taga (kamayish **905** ta), sanoat – **3 888** tadan **2 715** taga (kamayish **1 173** ta).

Hududlar kesimida


Jizzax sh.	6 984	Do'stlik t.	1 128
Sharof Rashidov t.	3 642	Paxtakor t.	1 105
G'allaorol t.	2 136	Mirzacho'l t.	918
Zomin t.	2 008	Arnasoy t.	834
Forish t.	1 728	Zafarobod t.	703
Baxmal t.	1 563	Yangiobod t.	579
Zarbdor t.	1 250		

2023- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023-yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni **2 111** ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar **2 101** ta;
- yirik korxonalar **10** ta.



Hududlar kesimida

Jizzax sh.	416	9,3 %	Paxtakor t.	95	11,4 %
G'allaorol t.	280	17,2 %	Zafarobod t.	91	17,3 %
Zomin t.	247	16,5 %	Mirzacho'l t.	86	13,4 %
Forish t.	217	15,6 %	Arnasoy t.	90	14,1 %
Sharof Rashidov t.	204	9,0 %	Yangiobod t.	63	15,3 %
Zarbdor t.	141	14,8 %	Do'stlik t.	53	7,5 %
Baxmal t.	128	10,9 %			

2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- iyul holatiga **17 139** taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **128,5** foizni tashkil etdi (**3 804** ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – **33,2** foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – **19,9** foiz, sanoat – **15,8** foiz, qurilish – **9,1** foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – **7,1** foiz, tashish va saqlash – **2,5** foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – **1,4** foiz, axborot va aloqa – **1,2** foiz, boshqa turlari – **9,8** foiz.

Hududlar kesimida


Jizzax sh.	4 478	Paxtakor t.	830
Sharof Rashidov t.	2 273	Do'stlik t.	704
G'allaorol t.	1 626	Arnasoy t.	639
Zomin t.	1 493	Mirzacho'l t.	642
Forish t.	1 388	Zafarobod t.	526
Baxmal t.	1 176	Yangiobod t.	411
Zarbdor t.	953		

2023- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2023- yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022-yilning mos davriga nisbatan **171** tadan **144** taga (ko'payish **27** taga) ko'paydi.



Hududlar kesimida

Jizzax sh.	412	9,3 %	Paxtakor t.	95	11,5 %
G'allaorol t.	280	17,3 %	Zafarobod t.	91	17,4 %
Zomin t.	245	16,5 %	Arnasoy t.	90	14,1 %
Forish t.	216	15,6 %	Mirzacho'l t.	86	13,5 %
Sharof Rashidov t.	203	8,9 %	Yangiobod t.	63	15,3 %
Zarbdor t.	140	14,7 %	Do'stlik t.	53	7,6 %
Baxmal t.	127	10,8 %			

2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Shahar va tumanlar kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Jizzax shahrida (**26,0 foiz**), Sharof Rashidov (**13,3 foiz**), G'allaorol (**9,5 foiz**), Zomin (**8,7 foiz**) va Forish (**8,1 foiz**) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu tumanlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	4 439	Paxtakor t.	828
Sharof Rashidov t.	2 270	Do'stlik t.	701
G'allaorol t.	1 621	Arnasoy t.	639
Zomin t.	1 483	Mirzacho'l t.	637
Forish t.	1 384	Zafarobod t.	524
Baxmal t.	1 173	Yangiobod t.	411
Zarbdor t.	950		

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar
2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida


Forish t.	603
Sharof Rashidov t.	356
Baxmal t.	327
G‘allaorol t.	315
Zomin t.	264
Arnasoy t.	234
Zarbdor t.	213
Jizzax sh.	205
Mirzacho‘l t.	182
Do‘stlik t.	174
Yangiobod t.	141
Zafarobod t.	123
Paxtakor t.	102



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	724
Sharof Rashidov t.	369
G'allaorol t.	325
Zomin t.	247
Zarbdor t.	184
Forish t.	157
Baxmal t.	130
Paxtakor t.	128
Do'stlik t.	116
Mirzacho'l t.	106
Zafarobod t.	90
Arnasoy t.	89
Yangiobod t.	50



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi besh yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarining sonining o'sish sur'ati **100,8** foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalarining soni jami korxonalar va tashkilotlarning **13,4** foiz ulushini tashkil etdi. Shundan **94,8** foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish **69,7** foiz), **3,6** foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish **74,4** foiz), **1,2** foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish **66,7** foiz) va **0,4** foizini elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish **64,7** foiz) tashkil etgan.



2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	602
Sharof Rashidov t.	239
G'allaorol t.	124
Zomin t.	102
Zarbdor t.	93
Paxtakor t.	81
Forish t.	66
Baxmal t.	55
Mirzacho'l t.	51
Do'stlik t.	49
Arnasoy t.	44
Zafarobod t.	26
Yangiobod t.	25



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi **52,1** foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **72,1** foizga kamaygan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi **21,5** foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **75,1** foizga kamaygan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi **26,4** foiz ulushni va **74,6** foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

411



Fuqarolik
obyektlarini qurish

335

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

811


Bino va
inshootlar qurish



2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	1 614
Sharof Rashidov t.	805
Zomin t.	546
G'allaorol t.	529
Baxmal t.	442
Paxtakor t.	329
Forish t.	321
Zarbdor t.	243
Do'stlik t.	227
Zafarobod t.	187
Arnasoy t.	171
Mirzacho'l t.	159
Yangiobod t.	114



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning **99,8** foizi yoki **5 677** tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi **64,5** foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati **91,3** foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida **24,6** foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati **84,9** foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida **10,9** foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati **90,7** foizni tashkil etdi.

621

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

1 399

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


3 667

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	367
Sharof Rashidov t.	200
Zomin t.	110
G'allaorol t.	104
Paxtakor t.	80
Zarbdor t.	71
Baxmal t.	60
Forish t.	57
Do'stlik t.	52
Mirzacho'l t.	50
Yangiobod t.	30
Zafarobod t.	29
Arnasoy t.	17



2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan **114,8** foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgo'klar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning **8,6** foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining **91,4** foiz ulushini tashkil etdi.

105

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 122


Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Jizzax sh.	107
G'allaorol t.	18
Sharof Rashidov t.	16
Baxmal t.	15
Zomin t.	14
Paxtakor t.	13
Zarbdor t.	7
Do'stlik t.	6
Mirzacho'l t.	6
Forish t.	6
Yangiobod t.	5
Zafarobod t.	4
Arnasoy t.	4



2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining **10,0** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **88,0** foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining **25,8** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **58,2** foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning **64,3** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati **97,3** foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	164
G'allaorol t.	29
Zomin t.	29
Sharof Rashidov t.	22
Baxmal t.	17
Paxtakor t.	14
Mirzacho'l t.	10
Zarbdor t.	10
Forish t.	8
Zafarobod t.	7
Yangiobod t.	7
Do'stlik t.	6
Arnasoy t.	5



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi **328** ta yoki **1,6** foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

92,7 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **97,7** foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni **5,2** foizni tashkil etib, o'sish sur'ati **73,9** foizni tashkil etdi;


Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning **2,1** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati **77,8** foizni tashkil etdi;



2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	153
Sharof Rashidov t.	87
Zomin t.	27
G'allaorol t.	24
Do'stlik t.	23
Zarbdor t.	22
Paxtakor t.	21
Baxmal t.	19
Mirzacho'l t.	14
Arnasoy t.	11
Yangiobod t.	7
Zafarobod t.	7
Forish t.	7



2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning **2,1** foiz ulushini tashkil etdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati **70,7** foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati **68,9** foizni; pochta va kuryerlik yo'nalishi **50,0** foizni tashkil etdi;

havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **100,0** foizni tashkil etdi;


suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni mavjud emas.



Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot
2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soni

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	348	Mirzacho'l t.	81
Forish t.	211	Arnasoy t.	79
Zomin t.	184	Zafarobod t.	57
Sharof Rashidov t.	160	Paxtakor t.	49
Zarbdor t.	126	Do'stlik t.	48
G'allaorol t.	123	Yangiobod t.	46
Baxmal t.	118		

2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan **17 139** ta tijorat korxonasi va tashkilotlarining **12 182** tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda **94,9** foiz, savdoda **92,8** foiz, yashash va ovqatlanishda **87,7** foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **82,5** foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	3 576	Do'stlik t.	549
Sharof Rashidov t.	1 845	Arnasoy t.	467
Zomin t.	969	Mizacho'l t.	456
Baxmal t.	949	Paxtakor t.	443
Forish t.	908	Zafarobod t.	313
G'allaorol t.	829	Yangiobod t.	208
Zarbdor t.	670		


2023- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2023- yil yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan **14** taga, sanoat **15** taga ko'paygan.


Hududlar kesimida

G'allaorol t.	131	Baxmal t.	6
Zafarobod t.	30	Sharof Rashidov t.	5
Jizzax sh.	21	Mirzacho'l t.	4
Yangiobod t.	16	Zarbdor t.	3
Paxtakor t.	14	Forish t.	2
Zomin t.	7	Do'stlik t.	1
Arnasoy t.	6		

2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan **21,8** foizga kamaydi.


Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan kamayishiga savdo (**77,4** foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (**72,8** foiz), sanoat (**62,1** foiz), tumanlar kesimida esa, Arnasoy (**83,0** foiz), G'allaorol (**82,6** foiz), va Paxtakor (**80,7** foiz) tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida


G'allaorol t.	563	Zarbdor t.	137
Jizzax sh.	464	Mirzacho'l t.	137
Forish t.	410	Zafarobod t.	135
Zomin t.	293	Baxmal t.	136
Paxtakor t.	197	Arnasoy t.	121
Sharof Rashidov t.	174	Do'stlik t.	77
Yangiobod t.	164		

2023- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo





Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Oilaviy korxonalar – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


Hududlar kesimida

Zomin t.	56	Arnasoy t.	5
Jizzax sh.	46	Baxmal t.	4
Sharof Rashidov t.	39	Do'stlik t.	3
Paxtakor t.	32	Zafarobod t.	3
G'allaorol t.	26	Mirzacho'l t.	1
Zarbdor t.	12		

2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra 2021- yilning mos davriga nisbatan **52** taga ko'paygan.

Bu esa quyidagi sohalaridagi korxonalar: savdoda **305** tadan **455** taga (o'sish **150** taga), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **190** tadan **240** taga (o'sish **50** taga), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish **5** tadan **17** taga (o'sish **12** taga) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	369	Zafarobod t.	63
Sharof Rashidov t.	232	Baxmal t.	60
G'allaorol t.	208	Mirzacho'l t.	35
Zomin t.	202	Forishl t.	35
Paxtakor t.	182	Arnasoy t.	24
Zarbdor t.	120	Yangiobod t.	17
Do'stlik t.	70		

2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘shish sur‘ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni **106,7** foizga oshdi.

Yetakchi o‘rinni **75** ta korxonada to‘liq yoki qisman ulushi mavjud bo‘lgan Turkiya egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining **42,9** foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotiga o‘z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi **21,1** foiz), Xitoy (ulushi **20,6** foiz) va Angliya (ulushi **12,0** foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	54	Arnasoy t.	7
Forish t.	26	Baxmal t.	7
Sharof Rashidov t.	19	Zafarobod t.	6
Zomin t.	15	Yangiobod t.	6
G‘allaorol t.	10	Zarbdor t.	4
Do‘stlik t.	9	Mirzacho‘l t.	4
Paxtakor t.	8		

2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan **111** tasi qo'shma korxonalar, **66** tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo'shma korxonalar

65	Jizzax viloyati	110
22	Jizzax shahri	32
8	Sh.Rashidov tumani	11
6	Zomin tumani	9
6	Forish tumani	20
5	Zafarobod tumani	1
4	G'allaorol tumani	6
4	Do'stlik tumani	5
3	Arnasoy tumani	4
3	Mirzacho'l tumani	1
2	Yangiobod tumani	4
1	Zarbdor tumani	3
1	Paxtakor tumani	7
0	Baxmal tumani	7

2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Statistik registrlarni yuritish
boʻlimi
Tel.: (72) 221-51-24